

RINOLALIYADA OPERATSIYADAN KEYINGI KORREKSION

ISHLAR

Teshaboeva Feruza Raximovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti v.b.dosent (PhD)

Abdulazizova Shaxnoza Muxammadsoli qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Annotasiya:

Ushbu maqolada rinolaliya nutq nuqsonida operatsiyadan keyin olib borilishi lozim bo'lgan korreksion ishlar haqida fikr yuritiladi. Xususan, rinolaliya nutq nuqsonini korreksiyalashda logopedik massajni o'rni va nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etishda logopedik o'yinlardan foydalanish, korreksion mashg'ulotlarni olib borishda tizimlilikni ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: rinolaliya, operatsiya, talaffuz kamchiliklari, logopedik massaj, o'yin, korreksiya, yumshoq tanglay, qattiq tanglay

Annotasiya:

В этой статье описаны коррекционные действия, которые необходимо провести после операции по поводу дефекта речи, вызванного ринолалией. В частности, выявлена роль логопедического массажа в коррекции ринолалийных дефектов речи и использовании логопедических игр в коррекции дефектов речи, важность систематизации при проведении коррекционных упражнений.

Ключевые слова: риноларингология, хирургия, дефекты произношения, логопедический массаж, игра, коррекция, мягкое небо, твердое небо

Annotation:

This article discusses the corrective actions that need to be taken after surgery for rhinorrhea speech defect. In particular, the role of speech therapy massage in the correction of rhinolalia speech defects and the use of speech therapy games in the correction of speech defects, the importance of systematization in the conduct of corrective exercises were revealed.

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

Keywords: rhinolaryngology, surgery, pronunciation defects, speech therapy massage, play, correction, soft palate, hard palate

Talaffuz kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda jamoaga kirisha olmaslik, kamgaplik kuzatiladi va bu o'z navbatida bolaning tafakkuriy rivojlanishini chegaralab qo'yadi. Ayniqsa, rinolaliya nutq nuqsoniga ega bolalarda o'z nutqidan va tashqi ko'rinishidan uyalish tufayli jamiyatga kirisha olmaslik kuzatiladi va buning natijasida tushkun kayfiyat, asabiylik holatlari kuzatiladi.

Rinolaliya, ya'ni dimoqdan, dimoq bilan gapirish, tovushlar talaffuzi va ovoz tembrining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik kamchiliklari, o'zgarishlari natijasida buzilib aytilishidir. Rinolaliya og'iz va burun bo'shliqlari o'rtasida to'siq yo'qligidan yoki shu bo'shliqlar bitib qolganidan kelib chiqadi. Rinolaliya og'ir nutq nuqsoni bo'lib korreksion ishlar ikki bosqichda: operatsiyagacha va operatsiyadan so'ng olib boriladi. Ushbu maqolamizda operatsiyadan so'ng olib boriladigan korreksion jarayonlar haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Rinolaliyada operatsiyadan so'nggi korreksion ishlarning asosiy maqsadi yumshoq tanglay harakatchanligini oshirish va undagi operatsiya natijasida hosil bo'lgan chandiqlik o'rnini bilinmaydigan holatga keltirishdir. Bola nutqidagi nazallik mana shu yumshoq tanglay harakatchanligi kamligi natijasidir. Buni tekshirib ko'rish ham mumkin. Bunda bolaning tili orqa qismiga shpatel yoki qoshiqning orqa qismi bosiladi va boladan ovoz chiqarish so'raladi. Mana shunda qattiq tanglay davomida joylashgan yumshoq tanglayning me'yorda ko'tarilmaganini ko'rish mumkin.

Bu holatda asosiy ishga 1-navbatda massajlar bajarish orqali kirishiladi. Logoped asosan yumshoq tanglaydagi chandiqlar ustida ishlaydi.

Logoped qo'lida qo'lqop bilan quyidagi massajlarni qiladi:

- a) yumshoq tanglaydagi chandiqlik usti bosiladi va o'ngdan chapga qarab silanadi
- b) yumshoq tanglaydagi chandiqlik usti oldindan orqa tarafga qarab silanadi.
- c) chandiqlik usti bosib-bosib qo'yiladi
- d) Chandiqlik ustida logoped bosh barmog'i zig-zag tarzda harakatlanadi.

Asosiy massajlar shundan iborat bo'lib boladagi o'zgarishlarga qarab qo'shimcha massajlarga o'tiladi va ba'zan esa bunga hojat bo'lmaydi. Bu ko'pincha bolaning yoshiga, logopedik ishlar bolada jarrohlik amaliyoti o'tkazilgandan qancha vaqtdan keyin o'tkazilganiga bog'liq.

Massaj bola ovqatlanib bo'lishi bilanoq qilinishi tavsiya qilinmaydi va massajni boshlashdan avval logoped bolaning logopedik mashg'ulotga bolaning ruhan va

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

jismonan tayyorligiga e'tibor berishi lozim. Massadan avval va massaj jarayonida logoped sanitariya-gigena qoidalariga rioya qilishi juda muhim. Tirnoqlar o'smagan bo'lishi kerak. O'sgan tirnoqlar bola yumshoq tanglayining shilliq epiteliy qavatini zararlab qo'yishi va massaj jarayonida bolada turli xildagi noxush og'riqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari logopedning qo'llari toza, spirt bilan dezinfeksiyalangan bo'lishi lozim. Massaj jarayonida logoped tibbiy qo'lqoplardan yoki bintdan foydalanishi mumkin. Massaj davomiyligi birinchi kundan qisqa vaqtda boshlanib kun sayin unga oz-ozdan vaqt qo'shib borish kerak.

Bundan tashqari rinolalik bola yumshoq tanglayining harakatchanligini oshirishda tabiiy massaj usullaridan ham foydalanish mumkin. Bular quyidagilar:

- a) bola og'ziga iliq suv olib tomog'ida tomoq chayish mashqini bajaradi. Huddi shu mashq avval suv bilan so'ng esa suvsiz bajariladi;
- b) pichirlab gapirish. Pichirlab gapirish jarayonida bola yumshoq tanglayi faol ishtirok etadi va yumshoq tanglay harakatchanligi ortadi.

Rinolalik bolalarda operatsiyadan so'nggi ishlar qatorida to'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish ishlari ham muhim o'rin tutadi. Sababi rinolaliya kasalligida nafas olish jarayonida kamchiliklar kuzatiladi. Bunda nafas nutq jarayonida og'iz va burundan teng taqsimda chiqmaydi balki havoning ko'p qismi burundan chiqadi. Mana shu sabab ham talaffuzda nazallik yuzaga keladi. Shuning uchun ham bolada to'g'ri nafas olish malakasini shakllantirish kerak. Buning uchun tavsiya etiladigan mashqlar quyidagilar:

- a) Og'izdan chuqur nafas olib burundan chiqarish;
- b) burundan chuqur nafas olib og'izdan chiqarish;
- c) og'izdan chuqur nafas olib og'izdan chuqur chiqarish;
- d) burundan chuqur nafas olib burundan chuqur chiqarish;
- e) logoped qo'lida paxta bo'lagini tutib turadi va bolaga burundan chuqur nafas olib og'izdan chiqargan havo orqali paxta bo'lagini uchirib yuborish so'raladi;
- f) huddi shu mashq og'izdan chuqur nafas olib burundan chiqqan havo bilan paxta bo'lagini uchirib yuborish bilan almashtiriladi;
- g) stakanga suv solinadi va naycha yordamida suvni bir tekisda qaynatish mashqi. Bunda bolaga birinchi gal suvni uzoq muddat bir tekis qaynatib turish buyuriladi. Keyin bu harakatlar boshqasiga almashtiriladi: chuqur nafas olib suvni bo'lib-bo'lib qaynatish;

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

h) shar shishirish mashqi. Buning bola uchun foydali jihati bolaning o'pkasining tiriklik sig'imi oshadi va buning natijasida bola nutq jarayonida nafas yetishmovchiligidan va noto'g'ri taqsimlanishidan aziyat chekmaydi.

Bu mashqlarni o'tkazishda iloji boricha bola uchun qiziqarli bo'lgan buyumlardan foydalanish afzalroqdir. Bu bolada mashg'ulotlarga qiziqish va ichki rag'bat uyg'otadi va ularning tez charchab qolishlari oldini oladi. Masalan, bolada to'g'ri nafas olish malakalarini shakllantirishga qaratilgan nafas mashqlarini o'tkazishda “Kapalaklar” ko'rgazmali qurolidan foydalanish mumkin. Bu qanday bo'ladi?

“P” shaklida yasalgan asosga uzun iplar bog'lanadi va bu iplarga rangli qog'ozlardan yasalgan kapalaklar yopishtiriladi. Mashg'ulot jarayonida bola ro'parasiga stol ustiga “Kapalak” ko'rgazmali quroli qo'yiladi. Bunda bolaga “Qani sen qancha ko'p kapalaklarni uchirolar ekansan ?” deya murojaat qilinadi va bola puflab kapalaklarni uchirishga harakat qiladi. Kapalaklardan nechtasi uchganiga qarab boladagi nafas chiqarish kuchini aniqlash mumkin. Nafas mashqlaridan so'ng til va lab mashqlari o'tkiziladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, rinolaliya nutq nuqsoniga ega bolalarning psixik rivojlanishida o'yin nutqning shakllanishiga spesifik ta'sirini ko'rsatadi. Rinolalaliya nutq nuqsonini korreksiyalashda operatsiyadan keyingi davrda bolalarda nutqqa bo'lgan ehtiyojni oshirishga va talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga korreksion mashg'ulotlarni tizimli tashkil qilish orqaligina erishiladi. Bu bolada o'z nutqidan uyalmaslik, tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirishga va faol nutq malakalarini mustahkamlashga, og'zaki nutqni mukamallashtirishga, ovoz va nutqiy nafasning to'g'ri shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova, Mukarram Yu. "Speech Preparation of Preschool Children with Speech Deficiency for School Education." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 2345-2353.
2. Ayupova, Mukarram, and Aziza Jumabayeva. "Pedagogical and psychological characteristics of speechimpaired children in preschool education." *Science and Education* 2.5 (2021): 544-549.
3. Ayupova, M. I. "Speech therapy (textbook)." Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan (2011).
4. Ayupova, M. Yu. "Speech Therapy Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan." (2007).

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

5. Azimjon o‘g, O. J. X., & Sarvinoz, Y. (2022, December). INKLYUZIV TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINI KUCHAYTIRISH IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In Conference Zone (pp. 466-474).
6. Azimjon o‘g, Oppoxo‘jayev Xojixuja. "INCLUSIVE EDUCATION SYSTEM PROGRESS OF THE PROCESS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 199-206.
7. Akramovna, Rejapova Namuna, and Abdubannobova Mahliyoxon Abdurashidqizi. "Problems in the organization and management of inclusive education and upbringing of children with visual impairments in preschools." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
8. Jo‘rayevich, Yuldashev Sodirjon. "ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL WORK NECESSARY FOR THE INTRODUCTION OF INCLUSIVE EDUCATION INTO PRACTICE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 159-164.
9. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPEECH THERAPISTS IN THE PROCESS OF STUDYING INDEPENDENTLY." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8.8 (2020): 155-158.
10. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "METHODS OF WORKING ON DIALOGICAL SPEECH IN OUT-OF-COURSE ACTIVITIES WITH HEARING-IMPAIRED STUDENTS." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.11 (2022): 521-527.